



# PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

2(2)

2022



MUNDARIJA

<b>PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA .....</b>	<b>6</b>
Омилхон ИСМАЙЛОВ, Александр ПОЛОННИКОВ, Мухиддин БАФАЕВ. Инновационно-ориентированное педагогическое образование Республики Узбекистан: стратегия и тактика развития .....	6
Shaxlo NURULLAYEVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy moslashtirish mexanizmlari.....	12
Nargiza DILOVA, Kimyoxon RAJABOVA. O'zbekiston ta'limining jahon ta'limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo'llashning ahamiyati .....	19
Jetkerbay OTEPBERGENOV. Talabalarning murakkab o'quv materiallarini o'zlashtirishda chizmatasviriy modellardan foydalanish mahorati.....	22
Shabon FARMONOVA. Boshlang'ich sinflarda ta'lim mazminini yangilash va ona tili o'qitishni ijodiy tashkil etish .....	26
Ne'mat SEVINCHOV, Maftuna HALIMOVA. Pedagogik o'lchovlarning tarkibiy qismlari va ularga qo'yiladigan talablar.....	32
Умида МУРТАЗАЕВА. Особенности развития учебно-исследовательских компетенций студентов высших образовательных учреждений в условиях кредитной системы.....	38
Ixtiyor XOLIQOV. Bo'lajak o'qituvchining asosiy kompetentligini rivojlantirish .....	43
Xasan SIDDIKOV. Oliy ta'limda tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishning innovatsion shakllari .....	46
Muattar ABDULLAXO'JAYEVA. Zamonaviy o'qituvchining pedagogik kompetentligini rivojlantirish.....	50
Perdexan SALIYEVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan ayrim muammolar va yechimlar .....	52
<b>МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНГ'ИЧ ТА'ЛИМ .....</b>	<b>55</b>
Shuhrat NE'MATOV, Nargiza MIRYUSUPOVA. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining kvalitologik kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari .....	60
Асрор ҚОСИМОВ. Бошланғич таълимда ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини ташкил этиш – долзарб педагогик муаммо сифатида .....	62
Maftuna MAMEDOVA. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola shaxsining rivojlanishida tarbiyaning roli.....	67
Dildora OMONOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirish metodik muammo sifatida.....	70
Manzura KASIMOVA. Maktabgacha ta'limda jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o'tkazishda laboratoriya xonalarini tashkil etish .....	74
Gulzoda ERGASHEVA. Steam ta'lim texnologiyasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish imkoniyatlari.....	78
Азиза ХУСЕНОВА. Моделирование обучения родному языку путём проектирования образования .....	82
Шакаржон ҚҶЧҚОРОВА. Бошланғич синф ўқувчиларида таянч компетенцияларни шакллантириш долзарб методик муаммо сифатида .....	90
Дилшод ДАВРОНОВ. Бошланғич синф ўқиш дарсларида бадиий матн устида ишлашда адабий тушунчаларни шакллантиришнинг илмий-назарий асослари .....	95
Sobirjon ISMATOV. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish metodikasi .....	100
<b>FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH .....</b>	<b>105</b>
Qahramon TO'XSANOV. "Masnaviyi ma'naviy"ning o'zbek adabiyotiga ta'siri.....	105
Mexriniso ABUZALOVA, Shahnoza ISLOMOVA. Tibbiyot tili va tibbiy matnlarning psixolingvistik xususiyatlari .....	111
Илона ИСПАЙЛОВА. Эффективность обучения медицинскому английскому языку при формировании коммуникативных навыков посредством аутентичных фильмов.....	117
Intizor JUMANIYOZOVA. Abdulla Oripov she'riyatida falsafiy-intellektuallik va ekspressivlikning ifodalanishi.....	124
<b>ANIQ VA TABIIY FANLAR .....</b>	<b>127</b>
Mirzohid DAMINOV, Sabohat HALIMOVA. O'zbekiston, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston umumiy o'rta ta'lim maktablari 7-sinf fizika darsliklarining qiyosiy tahlili .....	127

Nargiza DILOVA

Buxoro davlat universiteti dotsenti,  
pedagogika fanlari nomzodi

Kimyoxon RAJABOVA

Buxoro davlat universiteti  
mustaqil izlanuvchisi

19

## O'ZBEKISTON TA'LIMINING JAHON TA'LIMI BILAN INTEGRATSIYALASHUVIDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINI QO'LLASHNING AHAMIYATI

*Maqolada xalqaro baholash dasturlari, ulardan foydalanishda jahon ta'limi bilan integratsiyalash, xalqaro baholash dasturlarini qo'llashning ilmiy yangiligi, ta'lim jarayonida PIRLS xalqaro baholash dasturi topshiriqlariga asoslangan o'quv va sinov topshiriqlari orqali o'quvchilar kompetensiyasini rivojlantirishni takomillashtirish muammolari haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** xalqaro baholash dasturlari, jahon ta'limi, integratsiya, ilmiy yangilik, PIRLS xalqaro baholash dasturi, sinov topshiriqlar, kompetensiya, ta'lim sifati

*В статье рассматриваются проблемы международных программ оценивания, их интеграция с мировым образованием при их использовании, научная новизна использования международных программ оценивания, проблемы совершенствования развития компетентности учащихся посредством обучающих и тестовых заданий на основе международной программы оценивания PIRLS. задачи в воспитании.*

**Ключевые слова:** международные программы оценивания, мировое образование, интеграция, научная инновация, международная программа оценивания PIRLS, тестовые задания, компетентность, качество образования.

*The article deals with the problems of international assessment programs, their integration with world education when using them, the scientific novelty of using international assessment programs, the problems of improving the development of students' competence through training and test tasks based on the PIRLS international assessment program. tasks in education.*

**Key words:** international assessment programs, world education, integration, scientific innovation, PIRLS international assessment program, test tasks, competence, education quality.

**Kirish.** Respublikamizda turli ijtimoiy-iqtisodiy sohalar uchun yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislar, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega yoshlarni tayyorlashga e'tibor kuchaymoqda. Intellektual rivojlangan, jismonan baquvvat va ma'nau boy navqiron avlodni tarbiyalash ustuvor yo'nalish bo'lgan ta'limning noyob modeli jahon hamjamiyatining yuksak e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Ijtimoiy-iqtisodiy sohalar uchun raqobatbardosh mutaxassislar, tarmoqlar, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega yoshlar bu ta'limning o'ziga xos modelidir.

Kichik yoshdan boshlab matnlarni o'qishni rivojlantirish kreativ fikrlay oladigan kadrlar bazasini yaratishga keng imkon yaratadi. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida xalqaro tadqiqotlar materiallari bazasini, ya'ni PIRLS matni o'qish va tushunish xalqaro monitoringining oldingi sikllarida foydalanilgan matnlarni qo'llash o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga va matndan kelib chiqib beriladigan 12-18 tagacha savollarga javob berish ta'lim oluvchilarga o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirib boradi.

Jahon ta'limi bilan O'zbekiston ta'limining integratsiyalashuvi; zamonaviy ta'limning jahon standartlariga mos bo'lishi uchun xalqaro tadqiqotlarda qatnashishi va uning natijalari asosida solishtirib borilishi shartdir! Har qaysi davlatda ham ta'limning boshqa davlatlar ta'limi bilan taqqoslab borishi, ayniqsa, o'qish savodxonligining xalqaro standartlarga mos ravishda o'sib borishi mazkur mamlakat kadrlarining jahon talablari doirasida tayyorlanishi uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

2011, 2016-yillar ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya, Singapur, Gonkong, Irlandiya va Finlyandiya davlatlarida o'quvchilarning matni mutolaa qilishi muvaffaqiyatli natijalarni ko'rsatgan. Ushbu davlatlarning 4-sinf o'quvchilari barcha ishtirok etgan davlatlar orasidan eng yaxshi ko'rsatkichni namoyish etib, mamlakatlarning o'rtacha ballari orasidagi farq unchalik katta bo'lmagan.

Tadqiqotning 2016-yilgi natijalariga ko'ra, boshlang'ich maktablarni bitirayotgan rossiyaliklarning o'rtacha bali eng yuqori 581 ballni tashkil qilgan. Singapur, Gonkong, Irlandiya va Finlyandiya davlatlari o'quvchilarning

20 ko'rsatkichlari o'rtasidagi farq esa minimal va statistik ahamiyatga ega emas.

2016-yilda yaxshi natijalarga erishgan ko'pgina davlatlar 2011-yilga nisbatan o'z ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshiladilar. 2011-yil va 2016-yilda qatnashgan **41 ta mamlakat** natijalari solishtirilganda, 18 ta davlat 4-sinf o'quvchilarining matni o'qib tushunish darajasi o'sgan.

PIRLS xalqaro tadqiqotlar natijalari asosida boshlang'ich ta'limda islohotlar olib borilib, Avstraliya, Avstriya, Bolgariya, Tayvan, Angliya, Vengriya, Italiya, Irlandiya, Litva, Marokko, Norvegiya, Ummon, Qatar, Rossiya Federatsiyasi, Sloveniya, Ispaniya, Birlashgan Arab Amirliklari, Shvetsiya davlatlarida o'sish aniqlandi.

Taqqoslash asosida 13 mamlakatning natijalari o'zgarishsiz qolgan. Bular: Ozarbayjon, Chexiya, Finlyandiya, Gruziya, Germaniya, Gonkong, Niderlandiya, Shimoliy Irlandiya, Saudiya Arabistoni, Singapur, Slovakiya, Janubiy Amerika, Trinidad Tobago davlatlaridir.

Belgiya, Kanada, Daniya, Fransiya, Eron, Isroil, Malta, Yangi Zelandiya, Portugaliya, AQSh kabi davlatlarning o'quvchilari natijalari pastlagan.

2030-yilga qadar xalqaro tadqiqotlarda yuqori natijalarga erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydik. Xalqaro tadqiqotlarni o'quvchilarimiz to'lig'icha bajara olishi uchun ta'limni va ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlarning ijobiy tomonlarini o'zlashtirib borishimiz, ta'limda aniqlangan bo'shliqlarni xalqaro ta'lim tizimi bilan integratsiyalashib borishi lozimdir.

Zamonaviy hayot bugungi kunda insonga qat'iy talablarni qo'yadi - bu ta'limning yuqori sifati, xushmuomalalik, fidoyilik va eng muhimi - katta ma'lumotlar oqimini boshqarish qobiliyati. O'quvchilarni hayotga tayyorlash maktabda qo'yilgan, shuning uchun bugungi kunda ta'limga qo'yiladigan talablar ularning ustuvorliklarini o'zgartirmoqda. Ta'limning maqsadi va mazmuni o'zgarimoqda, ta'limning yangi vositalari va texnologiyalari paydo bo'lmoqda. Ammo barcha xilma-xilligi bilan dars o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakli bo'lib qolmoqda. Davlat ta'lim standarti talablarini amalga oshirish uchun dars yangi, zamonaviy bo'lishi kerak!

Ayni tayanch o'quv rejadagi ona tili va o'qish savodxonligi (1-3-sinf) darslariga ko'ra, bolalar mustaqil ravishda ma'lumot izlashlari va qayta ishlashlari kerak. Mazkur o'quv reja Xalq ta'limi vazirligining 2021-yil 24-dekabrda 414-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida O'zbekiston ta'limining jahon ta'limi bilan

integratsiyalashuvida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish metodikasi takomillashtirilgan;

*Integratsiya (lot. integratio — tiklash, to'ldirish, integer — butun) fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni, ikki va undan ortiq davlatlarning yo'nalishlar bo'yicha tegishli muammolarni sifatli va natijadorligini ta'minlagan holda hal qilishda o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish degan ma'noni bildiradi.*

PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida O'zbekiston ta'limining jahon ta'limi bilan integratsiyalashuvida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish metodikasi takomillashtirib boriladi.

Xalqaro tadqiqotlarda materiallaridan shu ko'rinadiki, matn yoki grafikdan kelib chiqib beriladigan topshiriqlar o'quvchilarni ma'lumotni yuzaki o'qib ko'rish emas mazmunidan topshiriqlarga javob berishga undaydi. O'quvchining xotirasi va fikrlay olish qobiliyatlarini hisobga olgan topshiriqlar xalqaro tadqiqotlarni asosiy topshiriqlarida ko'plab keltirilgan.

Hozirgi boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida aynan mana shunday topshiriqlar ko'pchilikni tashkil qilayapti.

Jahon ta'limi bilan O'zbekiston ta'limi bir birini to'ldirib, bir butun holatda integratsiyalashib bormoqda.

O'zbekiston ta'limining jahon ta'limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo'llash orqali o'quvchilarning shaxsiy motivatsiyasini oshirish, o'z-o'zini boshqarish, mustaqil bilim olish, bilimlarini sinab ko'rish va baholash vositalari aniqlangan va o'qitish jarayoni takomillashtirilgan. O'zbekiston ta'limi sifatini oshirish va jahon ta'limi bilan integratsiyalashgan holda Xalqaro baholash dasturlarini o'quv jarayonida qo'llash davlat siyosati darajasidagi muhim muammo hisoblanadi.

*Ta'limning asosiy vazifalarini, mavjud ilmiy salohiyat va alohida shaxslarning iste'dodini davlatning, uning tuzilmalari hamda iqtisodiyot tarmoqlarining amaldagi ehtiyojlariga moslashtirish juda muhim. Bugun tobora kuchayib borayotgan talablarga javob berish maqsadida harakat qilish zarurligini chuqur his etyapmiz. Oldinga, yangilanish sari bir necha qadam qo'yish uchun esa xalqimiz asrlar davomida to'plagan bebaho tajriba, ya'ni kadrlar tayyorlash bo'yicha hamda ilmiy-ta'limiy sohada erishilgan yutuqlar, uslubiy, tuzilmaviy, moddiy va nihoyat, innovatsion rivojlanish tajribasini hisobga olish hamda undan foydalanish lozim.*

Xalqaro tadqiqotlar monitoringiga tayyorlash buyicha tajriba-sinovi boshlangandan so'ng, boshlang'ich sinflarda PIRLS monitoringi jarayonining oldingi sikllarida foydalanilgan materiallardan ishlatila boshlandi. Adabiy va axborot matnlarida to'liq material taqdim etilib, so'ngra qiyinlik darajasiga qarab topshiriqlar berib boriladi, jarayonda berilgan materiallarni o'quvchi nafaqat yuzaki o'qishi, balki, uni o'qib, mushohadali (kreativ) fikrlashi zarur. Aynan matndagi obrazlar o'rnida o'zini qo'yishi, hayotda qayerda bu voqealar sodir bo'lishi mumkinligi, shunday vaziyatda nima qilish zarurligi va hattoki, asar muallifi o'rnida bo'lganda asarni qanday nomlashi yoki matnni qanday tugatishi mumkinligi bo'yicha xulosa chiqarishga undaydigan turli topshiriqlar beriladi. O'quvchilarga 1-darajadagi – esda saqlash va takrorlay olish, 2-darajadagi - g'oya va ko'nikmalarni bildirishga undaydigan, 3-darajali - strategik fikrlash hamda 4-darajadagi – kengaytirilgan fikrlashga undaydigan topshiriqlar beriladi. Topshiriqlar biz ishlatgan ochiq yoki yopiq testlar (4 ta javobli) qolipidan chiqiladi.

Bunday turdagi topshiriqlar avval xorijiy tillarda foydalana boshlandi. Hozirgi vaqtga kelib, boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi, tabiiy fanlarda keng qo'llanilishi o'z samarasini berayapti.

PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida O'zbekiston ta'limining jahon ta'limi bilan integratsiyalashuvida zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'qitish metodikasini takomillash-tirish modeli ishlab chiqilgan va tavsiyalar tayyorlangan.

PIRLS xalqaro tadqiqotlarida o'quvchilar barcha ma'lumotlar, so'rovnomalarni elektron tarzda onlayn bajarib boradi. Ma'lumotlardan ya'ni axborot yoki adabiy matndan kelib chiqadigan savollarga ham onlayn javob berib, natijalar jamlanib boriladi.

Xuddi shunday, ta'lim mazmuni va ta'limga sharoitlarni o'rganish sifatida o'tkaziladigan anketa savollari ham internet orqali har bir o'quvchining individualligiga xos ravishda beriladi, o'quvchilarning fikrlari ma'lumotlar bazasiga elektron to'planib boriladi.

#### Adabiyotlar

1. Ражабова К.Ф. PIRLS – бошланғич синф ўқувчиларининг ўқиш ва тушуниш саводхонлигини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқот дастури, "Мактабгача ва бошланғич таълим интеграцияси – давр талаби" минтақавий илмий-амалий анжумани Бухоро вилоят АКТ маркази ва уларнинг МО минтақавий маркази, Бухоро-2019, "Дурдона" нашриёти.
2. Ражабова К.Ф. PIRLS бошланғич синф ўқувчиларининг дарсликларни ўқиш ва мослигини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқот дастури, Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги Бухоро Давлат университети "Муаммолар, ечимлар ва истикболлар" Республика илмий-амалий анжуманининг муҳокамаси, 2020 й. 8 Май.
3. Ражабова К.Ф. Тўгарак машғулотида «PIRLS халқаро баҳолаш дастурини қўллаш», Методик тавсия. -Бухоро, 2021 йил, 24 июнь.
4. Ражабова К.Ф. Халқ таълимининг бошланғич синф битирувчилари ўртасида ўтказилаётган халқаро тадқиқотлар, "Таълимда инноватив-креатив технологияларнинг қўлланилиши, нейролингвистик дастурлашнинг амалий асослари" мавзусидаги халқаро конференция. 2021 йил, 27 декабрь.
5. Rajabova K.F. International Surveys of Primary Education Alumni, Educational administration of Bukhara region, "Modern English teachers as innovators in FLT", Collection of articles of the scientific-practical conference, February 22, 2022, Bukhara, Uzbekistan.
6. Халқаро таълим ассоциацияси (IEA)нинг PIRLS бўйича интернет базаси маълумотларидан фойдаланилди.